

## 2017 yil yanvar-iyun oylarida


Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2017 yil yanvar-iyun oylarida 481,6 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 110,4mln. AQSh dollarini va import 370,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosı – 259,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.


Mashina va asbob-uskunalarining eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 martaga oshib, xizmatlar eksporti esa 36.5 foizga o'sdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 36,7 mln. AQSh dollari tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmining 65,9 foizini tashkil etdi.

Viloyatda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi savdo aylanmasi 2017 yil yanvar-iyun oylarida 326,1 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 91,2 mln. AQSh dollarini va import 234,9 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.



## Import tarkibi, foizda






## Eksport va importda sohalar ulushlari

Import tarkibining umumiy hajmidan 44,9 foizini mashina va asbob-uskunalar, 27,6 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 12,9 foizini xizmatlar eksporti tashkil qilib, bunda transport xizmati 34,9 foizni va safarlar xizmati 24,1 foizni tashkil etdi.

Importda eng katta ulushni, ya'ni 44,9 foizni mashina va asbob-uskunalar importi egallagan. Eksportda esa bu soha 5,6 foizlik natija bilan qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagi ijobiy ko'rsatkichi (50,2 foiz) eksport hajmining deyarli yarmini tashkil etdi.






2017 yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosı –259,8 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Shundan MDH davlatlari bilan –24,4 mln. AQSh dollarini va boshqa davlatlar bilan –235,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**2017 yil yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi  
quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:**

	<i>mln.dollar</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan, %</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan, %</i>	
<b>Eksport</b>	<b>110,9</b>	<b>115,3</b>	<b>100</b>	
paxta tolasi	1,4	-	1,3	
oziq-ovqat mahsulotlari	55,7	98,8	50,2	
kimyo mahsulotlari va undan tayyolagan buyumlar	3,2	100,8	2,9	
qora va rangli metallar	2,5	30,2	2,2	
mashina va asbob-uskunalar	6,3	2,2m	5,6	
xizmatlar	14,3	136,5	12,9	
boshqalar	27,5	151,9	24,8	
<b>Import</b>	<b>370,7</b>	<b>111,0</b>	<b>100</b>	
oziq-ovqat mahsulotlari	45,6	110,4	12,3	
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	102,5	87,2	27,6	
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	1,5	97,7	0,4	
qora va rangli metallar	13,8	134,0	3,7	
mashina va asbob-uskunalar	166,5	122,5	44,9	
xizmatlar	2,1	107,7	0,6	
boshqalar	38,7	152,6	10,4	<b>3</b>


## 2017 yil yanvar-iyun oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 31,4 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar ulushi esa 68,6 foizni tashkil qilib, ular orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSh, Italiya davlatlarini kiritish mumkin.




## Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, (foizda)

### Eksport



### Import




Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 36,7 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 71,8 foizni tashkil qildi. Meva - sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida 34,9 foizini sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 59,4 foizini tashkil qildi), 30,9 foizini mevalar (73,7 foizini), 33,7 foizini uzum (94,1 foizini) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmidan 53,0 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (109,4 foizni) tashkil qildi.



Eksport hajmida asosiy hamkorlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 30,1 foiz), Rossiya (10,3 foiz), Iroq (7,1 foiz), Xitoy (7,9 foiz), Turkiya (14,1 foiz), Belarus(3,5 foiz) va Eron Islom Respublika(2,3 foiz) lari hisoblanadi.

#### Meva- sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida davlatlar ulushi, foizda



Eksport tarkibining umumiy hajmidan 33,1 foizini meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti tashkil qildi.



### Meva-sabzavot mahsulotlari

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti miqdori 49,5 ming tonnani, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80,4 foizni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy eksport hajmidan mevalarning miqdori 11,7 ming tonnani tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 97,7 foizni, sabzavotlar 21,7 ming tonnani (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 59,3 foizni), **uzum 15,9 ming tonnani (137,1 foizni)**, **yer yong'oq 164,8 tonnani (12,7 foizni)**, **qovun va tarvuz 1,2 tonnani (1,5 foizni)** tashkil qildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
Tel: 71-230-85-23**